"Shurtan gaz kimyo majmuasi"
mas'uliyati cheklangan jamiyati
BUYRUG'I

ПРИКАЗ
общества с ограниченной ответственностью
"Шуртанский газо химический комплекс"

№ 012/326-и/г
«04» 11 2022 у.

**"O`zbekneftgaz" AJning 2022-yil 20-oktyabrdagi**
**84-sonli Boshqaruv qarori to`g`risida**

"Shurtan gaz kimyo majmuasi" MChJ (Keyingi matnda – Jamiyat)da O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida"gi 595-sonli Qarori va "O`zbekneftgaz" AJning 2022-yil 20-oktyabrdagi "O`zbekneftgaz" AJda odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlarni belgilash to`g`risida"gi 84-sonli Boshqaruv qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

**B U Y U R A M A N :**

**1.** O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-sonli Qarori va "O`zbekneftgaz" AJning 2022-yil 20-oktyabrdagi 84-sonli Boshqaruv qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** Quyidagilar:

- Jamiyat ishchi-xizmatchilari uchun odob-axloq qoidalari (Keyingi matnda Odob-axloq qoidalari) 1-ilovaga muvofiq;
- Jamiyatning Odob-axloq komissiyasi to`g`risidagi Nizom 2-ilovaga muvofiq;
- Jamiyatning Odob-axloq komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3.** Personalni boshqarish (HR) xizmati (**O.Kodirov**)ga: **2022-yil 1-dekabriga qadar** ushbu buyruq ijrosi bo`yicha amalga oshirilgan ishlar natijasi to`g`risida batafsil axborotni tasdiqlangan hujjatlarni ilova qilgan holda "O`zbekneftgaz" AJning HR-departamentiga taqdim etilsin.

**4.** Belgilab qo`yilsinki, "Odob-axloq qoidalari" talablarining buzilishi qonunchilik hujjatlariga muvofiq intizomiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

№ 000314

**5.** O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-sonli Qarori bilan Jamiyatda yangi tahrirdagi odob-axloq qoidalari tasdiqlanishi munosabati bilan Jamiyatning 2018-yil 16-maydagi "Majmua ishchi va xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to`g`risida"gi 012/246-и/ч-sonli buyrug`i o`z kuchini yo`qotgan deb hisoblansin.

**6.** MBI va IN xizmati (**U.Xonkulov**) va Yuridik xizmati (**A.Xushvaktov**)ga: **1 (bir) oy muddatda** mazkur buyruqning mazmun-mohiyati bilan Jamiyat xodimlarini tanishtirish va huquqiy targ`ibot ishlari tashkil etilsin.

**7.** Ushbu buyruq Jamiyatning barcha tarkibiy bo`linmalariga yetkazilsin (**U.Xonkulov**).

**8.** Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o`z zimmamda qoldiraman.

**Bosh direktor** **Sh.Aslanov**

**Kiritildi:**

MBI va IN
xizmati boshlig`i U.Xonkulov

**Kelishildi:**

Bosh direktor o`rinbosari N.Xalilov

Yuridik xizmati boshlig`i A.Xushvaktov